

## O‘SMIRLARNI O‘Z-O‘ZIGA MUNOSABATINI INKLYUZIV TA‘LIMDA INOBATGA OLISH.

**Ch.R.Orziqulova**

*Farg‘ona davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi,  
Xalq ta‘limi a‘lochisi*

Inklyuziv ta‘limning ijtimoiy psixologik xususiyatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak unda jismoniy xolatidan qat’iy nazar barcha bolalar bir xil ta‘lim olish uchun sharoit yaratilganligin ko‘rishimiz mumkin. Unda antropometrik (bo‘y, vazn, ko‘krak qafasi kengligi va boshqa fiziologik belgilar) e‘tiborga olinmaydi aksincha bilimlarni o‘zlashtirishi va uni amalda qo‘llay olishi yetakchi rol o‘ynaydi. Anashu bilimlar asosida o‘smirdlar o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini namoyon etib boradi. O‘z-o‘zini anglashi yoki o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati sinf jamoasidagi o‘zaro munosabat faqatgina o‘smirni bilimlarini egallash orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonga e‘tibor qaratisa bir sinf jamoasida turli vaznga, meyardan bo‘yi baland va past o‘quvchilarni ko‘rishimiz mumkin. Ammo o‘quvchilarni xulq atvorlari, psixologik xususiyatlari hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati tubdan farqlanib turadi. Bundan kelib chiqadigan hulosa shundagi o‘quvchilarning antropometrik jixatlari pedagog va psixologlarning o‘rganish obekti emas, aksincha ularni bilimlarini o‘zlashtirishi, xulq atvorini boshqara olishi hamda o‘zligini namoyon eta olishi ko‘p qirrali tadqiqot sifatida taxlil etiladi. Antropometrik belgili o‘smirlar aksari hollarda o‘zlarini noqulay his qilishlari o‘zlarini tashqi qiyofalaridan hijolat bo‘lishlari va tengdoshlaridan ajralib turishlarini muntazam his qilib turishlari ko‘zga tashlanadi.

Inklyuziv ta‘limda aynana shu antropometrik belgili o‘smirlarni va me‘yordagi o‘smirlarni bilimlarini o‘zlashtirish yo‘nalishdagi o‘ziga xosliklarni taxlil etishga e‘tiborini yo‘naltirilganligi bilan diqqatga sazovordir. Antropometrik belgili o‘smirlar o‘zlarini bilish jarayonlarini namoyon etishga harakat qilishadi. Buning uchun ulardagi bilish jarayonlaridan idrok, tafakur, xotira jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga o‘ta extiyotkorlik bilan yondashadi. Bundan tashqari tengdoshlari orasida xijolat bo‘lmasliklari uchun o‘z fikrlarini bayon qilishdan cho‘chishadi. Demak antropometrik belgili o‘smirlar muntazam ravishda o‘z faoliyatlarini nazorat qilib diqqat etiborlarida ushlab turishadi.

O‘smirlik davrida o‘z o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini tushunish asosida yuzaga keladi. Antropometrik belgili o‘smirlarda esa ba‘zan tashqaridan berilayotgan baho alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sabali ham pedagoglar antropometrik belgili o‘quvchilarni ijobiy tomomnlarini bo‘rttirib ko‘rsatishlari, salbiy tomomnlarini esa biroz yashirgan xolatda sinf jamoasi oldida munosabatga kirishishlari lozim bo‘ladi.

Antropometrik rivojlanish shaxs ontogenezini ma‘lum bir davrida qanday psixofiziologik o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi? Mazkur rivojlanish somatometrik

tadqiqotlar asosida yillar davomida amalga oshirib boriladi. Ularning natijasida esa turli somatik tiplar aniqlab boriladi. Turli somatik shaxsning har tomonlama bekami ko'st rivojlanishiga ega bolalarning antropometrik xususiyatlari o'rganilgan. Jismoniy rivojlanish parametrlari o'rganilishi asosida ulardagi psixologik, fiziologik va biologik o'zgaruvchanligi somatotipga bog'liqligi ilmiy asosda isbotlab berilgan. Turli xil somatotipli bolalarda tayanch xarakter nuqtalari va oyoq-qo'l segmentlarining uzunlamasi va ko'ndalang o'lchamlari dinamikasida geteroxronligi aniqlanlangan.

E.G'.G'oziev o'zining Ontogenez darsligida "Yoshlarning fizioanotomik jihatdan boshqa tengqurlaridan farqlanib turishi uning ruhiyatiga salbiy ta'sir etishiga urg'u berib, fizionotomik farqlanib turish o'zini tengdoshlaridan ajralib turganligini tan olish aksari holatlarda ruhiy tanglikka olib keladi.<sup>31</sup>"

Mazkur fikrning ma'nosidan anglash mumkinki somatotip bo'lgan bolalarda ruhiy rivojlanishi, o'zligini anglashi ancha muvoffaqiyatli kechadi.

Somatotiplik va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarning muvaffaqiyati, rivoji hamda taraqqiyot mezoni bo'lib, funktsional imkoniyatlarni belgilaydi, xususan, kichik maktab o'quvchilarida morfotip va jismoniy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik ishonchli tarzda isbotlangan. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'krak va mushakning o'rtacha somatotip variantlari populyatsiyada ko'proq uchraydi. Tanadagi mushak, yog va suyak tarkibiy qismlarining nisbati atrof-muhit omillariga, ovqatlanish odatlariga, jismoniy faoliyatda, stress omillarining mavjudligiga va boshqalarga qarab sezilarli darajada o'zgaradi.

Mazkur o'zgarishlar ma'lum shart sharoitga, iqlim o'zgarishiga nisbatan adaptatsiyaning o'ziga hosligini nafaqat fizionotomik balki psixologik asosga ega ekanligidan darak beradi. Shunday qilib, paydo bo'ladigan tana turining parametrlari tananing adaptiv reaksiyalarining informatsion ko'rsatkichlari hisoblanadi. Demak, moslashish mexanizmlarining nazariy va amaliy asoslarini, ayniqsa, individual tipologik, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish zarurati hamma davrlarda ham eng dolzarb muammolar sifatida insonshunoslik bilan shug'ullanuvchi fanlarni o'ziga jalb etib kelgan. Inson populyatsiyasida somatik shaxsning har tomonlama bekami ko'st rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni shaxs turlarini taqsimlashdagi davr tendentsiyalari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga aniq bog'liqlikni kuzatadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni takidlashimiz joizki somatiplarga o'ziga nisbatan ularning kelajakdagi yutuqlariga urg'u bergan xolda, psixologik ustanovkalar orqali o'z fizionotomiyasidan qoniqishga undash maqsadga muvofiqdir. Masalan: tengdoshlariga nisbatan bo'yi baland, to'lachadan kelgan va past bo'yli yoshlarga kelajakda sport va san'at sohasida erishishi mumkin bo'lgan yutuqlari haqida ustanovkalar berish orqali o'z fizionotomiyasidan qoniqish hissini ortirish orqali o'z menligini takomillashuviga yordam berish maqsadga muvofiqdir.

Aksari o'smirlik davridagi somatipik yoshlarga ijtimoiy muxitda o'z o'rniga egaligini va anashu o'rinni mustahkam egallash orqali ijtimoiy psixologik portreti

<sup>31</sup> Э. Ф. Ғозиев. "Онтогенез психологияси" Т.2010. "Ношир"

shakllanishiga kattalar yordam berishi lozim bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsadati somatipik o'quvchilar o'zlarini boshqa tengdoshlari bilan qiyoslash darajalari yuqori bo'ladi. Mazkur diferentsial holatni ijobiy tomonga yo'naltirish orqali o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga fiziologik menligidan qoniqish darajasini ortirish asosida ulardagi yashirin qobiliyat va layoqatlarni yuzaga chiqarish ijobiy natijalarga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, o'quvchilarning antropometrik hususiyataridan kelib chiqqan holda vazifalar berish yoki biror ishga mas'ul etib tayyorlash orqali boshqa tengdoshlariga nisbatan afzallik tomonini anglashiga xizmat qiladi. Antropometrik xususiyatlarga ega bo'lgan somatipik o'quvchilarni o'z o'ziga bo'lgan ishonchini takomillashtirishda ularni qanchalik ko'p rag'barlantirilsa ular o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga shunchalik intiladilar, aksincha bo'lgan xolatda esa ularda stress va dipress xolatlar yuz beradi. Aksari hollarda anashu stress holatlari ularning o'z fizianatomik xislatlaridan qoniqmaslik darajasini ortib ketishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlar yoshlar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir etishi hech kimga sir emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni takidlashimiz joizki Yangilanayotgan O'zbekistonda bironta ham yosh avlod davlatimiz raxbariyati nazaridan chetda qolmay kelmoqda. Ularni xususiyatlarini ilmiy jixatda taxlil etish uchun keng ko'lamda tadqiqotlar olib borishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Anashu imkoniyatlardan unumli foydalangan xolda O'zbekiston psixologlari turli rivojlanish davrlarida antropometrik xususiyatlar xamda mazkur davrlarda yuksak insoniy hislarni o'rganishlari va olib borayotgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'.G'oziev "Ontogenez psixologiyasi" Noshir T - 2019
2. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
3. E.G'.G'oziev. Umumiy psixologiya. T. 2010 y. O'z FMJ nashiryoti.
4. Orzukulova C.R. (2022). HIGH HUMAN FEELINGS IN EARLY ADOLESCENCE IMPACT ON CAREER CHOICE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 274-277.